

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOSHEV MO‘MIN ESHBOYEVICH**

**MAHALLIY XOMASHYOLAR ASOSIDA TARKIBIDA AZOT, FOSFOR  
VA OLTINGUGURT BO‘LGAN OLIGOMERLAR OLIH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING  
QO‘LLANILISHI**

**02.00.14–Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYA AVTOREFERATI**

**TERMIZ – 2023**

**Falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Toshev Mo‘min Eshboyevich**

Mahalliy xomashyolar asosida tarkibida azot, fosfor va  
oltingugurt bo‘lgan oligomerlar olish texnologiyasini ishlab  
chiqish va ularning qo‘llanilishi.....3

**Тошев Мумин Эшбоевич**

Разработка технологии получения азотсодержащих азот,  
фосфор и серу олигомеров на основе местного сырья и их  
применение.....21

**Toshev Mumin Eshboyevich**

Development of technology for producing nitrogen-containing  
nitrogen, phosphorus and sulfur oligomers based on local raw  
materials and their application.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....43**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**TOSHYEV MO‘MIN ESHBOYEVICH**

**MAHALLIY XOM ASHYOLAR ASOSIDA TARKIBIDA AZOT, FOSFOR  
VA OLTINGUGURT BO‘LGAN OLIGOMERLAR OLISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNING  
QO‘LLANILISHI**

**02.00.14–Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYA AVTOREFERATI**

**TERMIZ – 2023**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T3831 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Turayev Xayit Xudaynazarovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Tojiyev Panji Jovliyevich,**  
Texnika fanlari doktori, dotsent  
**Sottiqulov Elyor Sotimboyevich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:** **Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01. raqamli ilmiy kengashning «23» 11 2023 yil soat 10<sup>00</sup> daqi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№185 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail:termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «11» 11 kuni tarqatildi.  
(2023 yil «11» 11 daqi 5- raqamli reestr bayonnomasi).



**I.A. Umbarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, t.f.d., dots.

**Sh.A. Kasimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., dots.

**R.V. Aliqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, k.f.d., dots.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda jahonda tarkibida azot, fosfor va oltingugurt bo'lgan oligomerlar asosidagi materiallar xalq xo'jaligining juda ko'p sohalarida, jumladan, bo'yoq moddalar, korroziya ingibitorlari, surkov materiallari, sorbentlar, rezina vulkanlashda tezlashtirgichlar, germetiklar va himoya qoplamalarini ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, tarkibida oltingugurt bo'lgan oligomerlar asosidagi germetiklovchi organik materiallar qotish jarayonida invariantlik qobiliyati, fizik-mexanik xossalarning yuqori ekanligi, agressiv muhitga chidamliligi va vulkanizatorlarni haroratning keng intervalida ishlatish mumkinligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda tarkibida azot, fosfor va oltingugurt bo'lgan oligomerlar asosida yuqori samarali germetiklovchi organik materiallar olish, ularning sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, tarkibida azot, fosfor va oltingugurt bo'lgan oligomerlar sintezida zanjir uzunligi hamda molekulyar massasini nazorat qilish, polisulfid oligomerlar asosida yuqori samarali germetiklar olish uchun to'ldiruvchilar va qotiruvchilar tarkibini tanlash, olingan germetik qoplamalarning adgezion xossalarni yaxshilash, suv, moy va turli agressiv muhitlarga chidamliligini oshirish va sulfidli germetiklovchi materiallar olishining arzon, resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo'nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida"<sup>1</sup> iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, jumladan, kimyo sanoatini rivojlantirishda, yo'naltirilgan organik sintez asosida germetiklovchi materiallarni ishlab chiqarish uchun iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik toza texnologiyalarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2018 yil 17 yanvardagi PQ-3479-sonli «Mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarini zarur mahsulotlar va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 25 oktyabrdagi PQ-3983-sonli «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2019 yil 3

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kauchuksimon polimer kompozitsiyalar sintezi va modifikatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha W.Mazurek, A.G. Morits, E.M. Fettes, M. Takashi, J.W. Barber, Ch. Brun, M. Morioka, L.A. Averko-Antonovich, P.A. Kirpichnikov, R.A. Smislova, V.S. Minkin, R.A. Shlyaxter, F.B. Novosyolok, P.P. Suxanov, M.V. Berenbaum, Yu.N. Xakimullin, R.R. Valeyev, T.Yu. Mirakova, I.E. Ismayev, A.G. Liakumovich, L.P. Labutin, G.M. Raxmatullina, R.Sh. Frenkel, D.S. Ioffe, M.A. Asqarov, A.T. Djalilov, S.N. Negmatov, S.Sh. Rashidova, X.X. Turayev, T.M. Babayev, F.N. Nurkulov, B.A. Normurodov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Germetiklovchi materiallar texnologiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari qurilish va sanoat kompozitlarining samaradorligini oshirish uchun kauchuksimon polimerlarni modifikatsiyalashga qaratilgan. Polimer konstruksiyalarning xizmat qilish muddatini oshirish, ularning ekspluatasion sifatini yaxshilash qurilish va sanoat konstruksiyalari sifatini oshirish vazifasini hal etish bilan uzviy bog‘liq.

Shu bilan birga, individual va polifunksional ta’sirga ega organik modifikatorlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar germetiklarning sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Germetiklarni modifikatsiyalash germetiklar samaradorligini oshirishning ancha oson va qulay usuli hisoblanadi hamda shu maqsadda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-34 “Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida ba’zi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari” (2017-2020 y.y.) va MU-FZ-201910142 “Minerallashgan quvur, fitting, panel va pol qoplamalari ishlab chiqishning innovasion texnologiyasini yaratish” (2020-2022 y.y.) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mahalliy xom ashyolar asosida modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar sintezi va ular asosida samarali germetiklovchi materiallarni olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo‘lgan yangi yuqori samarali oligomerlar sintezining optimal sharoitini aniqlash;

sintez qilingan tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo‘lgan oligomerlarning tuzilishi, fizik-kimyoviy va fizik-mexanik xossalarini o‘rganish;

sintez qilingan tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan oligomerlarni to'yinmagan birikmalar bilan modifikatsiyalash;

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosida germetiklovchi materiallar olish;

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosida olingan germetiklovchi materiallarning tadqiqoti va ularni qo'llash samaradorligini texnik-iqtisodiy asoslash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida natriy tetrasulfid, 3-xlor-1,2-epoksiopropan, 3-xlorpropandiol-1,2, 1,2-dixloropropanol-3, karbamid, ortofosfat kislota, ammoniy polifosfat, akrilamid asosida sintez qilingan yangi polisulfid oligomerlar hamda modifikatsiyalangan germetiklar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** mahalliy xomashyolar asosida tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan polisulfid oligomerlar sintezi, ularni modifikatsiyalash jarayonlari va olingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi hamda xossalari tashkil etgan.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida IQ spektroskopiya, differensial skanerlovchi kalorimetriya, rentgenofazaviy, energo-dispersion analiz va skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM-EDX) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mahalliy xomashyolar asosida tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan yangi samarali modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar olingan;

olingan tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlarning fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan;

sintez qilingan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar va ular asosida olingan germetiklarning tuzilishi va xossalari aniqlangan;

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan tiokol oligomerlar modifikatsiyasining ularning mexanik xossalarining yaxshilanishiga modifikatorning isbotlangan ta'siri isbotlangan;

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlarning fizik-mexanik xossalari aniqlangan;

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosida germetiklovchi tarkiblar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar ishlab chiqarish va ularni polimer kompozitsiyalarda qo'llash texnologiyasi yaratilgan;

tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosida atmosfera va agressiv muhitlarda barqaror bo'lgan germetiklovchi tarkiblar ishlab chiqilgan;

sintez qilingan tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosida tiokol germetiklar olishga texnik hujjatlar ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotning xulosalari va tavsiyalarining asoslanganligi, olingan moddalarni identifikatsiyalashda zamonaviy, yuqori informasion fizik-kimyoviy usullari (IQ, DSK, RFA, SEM-EDX) va

kimyoviy tadqiqotlardan foydalanilganligi va ishlab chiqilgan tiokol oligomerlar hamda ular asosida germetiklarni olish texnologiyasi, ularning qo'llanishi tajriba-sanoat sinovlarida aprotatsiya qilingan hamda ishlab chiqarishga qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy xomashyolar asosida tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan yuqori samarali modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar olishning maqbul sharoitlari aniqlanganligi, olingan tiokol oligomerlar asosida termik barqaror, agressiv muhitlarga chidamli, shisha va dyural materiallarning ishchi yuzalariga nisbatan yuqori adgezion xususiyatlarga ega bo'lgan yangi germetiklovchi qoplamalar olish usullarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'tkazilgan sanoat sinovlari natijasida olingan tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar germetiklar sifatida qo'llash mumkinligi ko'rsatilgan. Tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan tiokol oligomerlarni modifikatsiyalashning aniqlangan qonuniyatlaridan yangi yuqori samarali tiokol oligomerlarni olish uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar olish texnologiyasi va qo'llanilishi bo'yicha olingan natijalar asosida:

azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan modifikatsiyalangan polisulfid oligomerlar olish texnologiyasi "Petromaruz Uzbekistan" xorijiy korxonasida yangi yuqori samarali ionitlar olish uchun amaliyotga joriy etilgan ("Petromaruz Uzbekistan" xorijiy korxonasining 2023 yil 19 sentyabrdagi ECO-CER-417-son ma'lumotnomasi). Natijada, agressiv muhitlarga chidamli, mexanik mustahkam germetiklovchi va himoyalovchi mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan oligomer qo'shimchalar olish imkonini bergan;

mahalliy xomashyolar asosidagi modifikatsiyalangan polisulfid oligomerlar "Petromaruz Uzbekistan" xorijiy korxonasida ikki komponentli polisulfid germetiklar olishda joriy etilgan ("Petromaruz Uzbekistan" xorijiy korxonasining 2023 yil 19 sentyabrdagi ECO-CER-417-son ma'lumotnomasi). Natijada, mahalliy xomashyolar asosida arzon, yuqori samarali, import o'rnini bosuvchi germetiklovchi materiallar olish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishi chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.



## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


**Kirish qismida** o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'jekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tiokol oligomerlar sintezi va ular asosidagi germetiklar**» deb nomlangan birinchi bobida tarkibida azot, fosfor, oltingugurt bo'lgan tiokol oligomerlar sintezining fizik-kimyoviy asoslari qiyosiy tahlil qilingan, shuningdek, tiokol oligomerlar asosidagi germetiklovchi materiallar, ularni modifikatsiyalash va vulkanizatsiyalashga doir adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Mahalliy xomashyolar asosida tiokol oligomerlar sintezi va ularni to'yinmagan birikmalar bilan modifikatsiyalash**» deb nomlangan ikkinchi bobida natriy polisulfid, monoxlorgidrin, karbamid addukti asosida (MKA-1), natriy polisulfid, monoxlorgidrin, tarkibida metall bo'lgan addukt asosida (MTA-2), natriy polisulfid, monoxlorgidrin, ammoniy fosfat asosida (MAF-3), natriy polisulfid, dixlorgidrin, karbamid addukti asosida (DKA-4), natriy polisulfid, dixlorgidrin, tarkibida metall bo'lgan addukt asosida (DMA-5), natriy polisulfid, dixlorgidrin, ammoniy fosfat asosida (DAF-6), natriy polisulfid, epixlorgidrin, karbamid addukti asosida (EKA-7), natriy polisulfid, epixlorgidrin, tarkibida metall bo'lgan addukt asosida (EMA-8), natriy polisulfid, epixlorgidrin, ammofos asosidagi (EAF-9) kabi tiokol oligomerlar sintezi, sintez qilingan tiokol oligomerlarning akrilamid bilan modifikatsiyalash va olingan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlarni tadqiq qilishga tayyorlash, ularning tarkibi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, modifikatsiya jarayonining tiokol oligomerlarning fizik-mexanik xossalariga ta'sirini asoslash, modifikatsiyalangan tiokol oligomerlarning fizik-mexanik xossalarini aniqlash natijalari keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Mahalliy xomashyolar asosida modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar olish jarayonining tadqiqoti**» bo'yicha olingan natijalarning tahliliga bag'ishlangan. Bu bobda olingan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlarning asosiy fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish natijalari keltirilgan.


DAF-6 ning IQ spektrida  $2850-1470 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda  $-\text{CH}_2-$  guruhlar uchun xos bo'lgan va  $1650 \text{ cm}^{-1}$  sohada erkin holatdagi  $-\text{OH}$  guruhlarining borligini tasdiqlovchi yutilish chiziqlari mavjud (1-rasm). IQ spektrda  $3400 \text{ cm}^{-1}$  sohada  $-\text{OH}$  guruhiga va  $3300-3440 \text{ cm}^{-1}$  sohalarda esa ammoniy  $-\text{NH}_4$  guruhiga xos bo'lgan yutilish chiziqlari mavjud. Faol guruhlarining deformasion tebranish chiziqlari kuchli toraygan yutilish chiziqlari ko'rinishida  $-\text{CH}_2-\text{O}-$  guruhning  $1400-1465 \text{ cm}^{-1}$  sohalardagi odatdagi deformasion tebranish chiziqlari o'rtasida ko'rinadi.  $800$  va  $1600 \text{ cm}^{-1}$  sohalardagi yutilish chiziqlari  $-\text{NH}_4$  guruhlar borligidan dalolat beradi .



**1-rasm. DAF-6 markali oligomerning IQ-spektri**

Tarkibida fosfor bo‘lgan R=O va R–O–C guruhlarining borligini 1000–1180  $\text{cm}^{-1}$  sohadagi yutilish chiziqlar, tarkibida oltingugurt bo‘lgan guruhlarni 400-900  $\text{cm}^{-1}$ , 1040-1060  $\text{cm}^{-1}$  va 1100-900  $\text{cm}^{-1}$  sohalardagi keng intensiv chiziqlar tasdiqlaydi. Bundan tashqari, IQ-spektrdagi 600-800  $\text{cm}^{-1}$  va 1460  $\text{cm}^{-1}$  sohalardagi tor kam intensiv chiziqlar modda tarkibida oltingugurt bo‘lgan guruhlar borligidan dalolat beradi. DAF-6 ning IQ spektridan ko‘rinib turibdiki, -CH<sub>2</sub>-O- guruhlar 1400-1440  $\text{cm}^{-1}$  va organik fosfatlar 1180-1150  $\text{cm}^{-1}$  sohalarda namoyon bo‘ladi.

DAF-6 markali oligomerning termik xossalari DSK da tadqiq qilindi. DAF-6 namunasi massasi harorat 207°C gacha o‘zgarmaydi. 184°C haroratda namunaning suyuqlanishiga mos bo‘lgan bitta endotermik cho‘qqi kuzatiladi. 207°C dan yuqori haroratda namuna ikki bosqichda - 265°C gacha 6%/min tezlikda va 265°C dan yuqori haroratda 2,5%/min tezlikda 73% umumiy massa yo‘qotish bilan parchalana boshlaydi. Parchalanish reaksiyasi endotermik bo‘lib, parchalanishning umumiy energiyasi -302.7 J/g (2-rasm).





**2-rasm. DAF-6 markali oligomerning DSK termogrammasi**

Skanerlovchi elektron mikroskopiya yordamida oligomerlar namunalarning sirt tuzilishi va ular tarkibidagi elementlar miqdori aniqlandi. Namunani sinovdan o‘tkazish uchun dastlab tutqichga mahkamlanib, namuna 5 nm gacha oltin kukuni

bilan qoplandi. Namuna sirtini oltin kukuni bilan qoplashda QUORUM Q150 RS asbobidan foydalanildi.


Электронное изображение 6




### 3-расм. DAF-6 markali oligomerning mikrotasviri

### 4-расм. DAF-6 markali oligomerning EDX ma'lumotlari

Mikrotuzilish tadqiqoti natijalari 3-rasmda berilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, 100 g tiokolga 4 g akrilamid qo'shilganda, dispers faza zarrachalarining o'lchami 0,1 mkm dan 0,5 mkm gacha ortadi. Bunda 100 g tiokolga 4 g akrilamid qo'shilganda bunday samara kuzatilmaydi. Agar akrilamid bilan dibutilftalat plastifikatori qo'shilsa, tarkibidagi modifikatsiyalovchi qo'shimcha miqdoriga to'g'ri proporsional ravishda dispers faza zarrachalarining o'lchami sezilarlicha ortadi. 4-rasmda oligomer tarkibidagi uglerod, kislorod, oltingugurt, azot, fosfor, natriyning foiz nisbatlari ko'rsatilgan. Yuqorida keltirilgan tahlil natijalari asosida DAF-6 markali modifikatsiyalangan tiokol oligomerni olish reaksiyasi sxemasini quyidagi ko'rinishda tasvirlash mumkin:





*Polisulfid germetiklarni akrilamid bilan modifikatsiyalash.* Suyuq tiokollarni to‘yinmagan monomer va oligomer tipdagi birikmalar bilan modifikatsiyalash istiqbolli bo‘lib, bu nafaqat shishaga nisbatan adgeziyani oshirishga yordam beradi, balki, yangi xossalar kompleksiga ega sopolimer germetiklar olishga ham imkon beradi. Akrilamid va uning tarkibida azot bo‘lgan hosilasidan foydalanish metall xamda shishaga nisbatan adgeziyani oshiradi. Akrilamidning bir vaqtning o‘zida plastifikator rolini ham bajaradi va vulkanlash jarayonida faol qatnashadi, shu bilan birga qotuvchi germetiklarning mustahkamlik xossalarini yomonlashtirmaydi. Qoidaga ko‘ra, germetiklovchi pastaga tiokol bilan bir vaqtda reaksiya qobiliyatli birikma kiritilsa, bunda ma’lum vaqt davomida uning qovushoqligining ortishiga olib keladi va qo‘llanishgacha bo‘lgan saqlash muddatini qisqartiradi.

Shunga ko‘ra, birgalikda saqlash sharoitida tiokolning SH-guruhlarini bilan o‘zaro ta’sirlashmaydigan va oksidlovchi ishtirokida tiokolning qotishida faol qatnashadigan to‘yinmagan birikmalarni qidirish amalga oshirildi. Buni tiokol SH-guruhlarining oksidlanishini sekinlashtirish imkonini beruvchi fragmentlarni to‘yinmagan birikmalar tarkibiga kiritish orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu maqsad uchun to‘yinmagan guruhlariga ega bo‘lgan akrilamid ko‘proq mos keladi. Shu bilan birga, turli tuzilishga ega to‘yinmagan akrilamid modifikatorining tarkibi va tabiatiga bog‘liq holda ularning suyuq tiokollar bilan reaksiyasida modifikator sifatidagi samaradorligini baholash qiziqarli bo‘ladi.

Tadqiqot uchun tarkibida 2,95% SH-guruhlarini bo‘lgan va qovushoqligi 15,5 Pa·s bo‘lgan suyuq tiokollardan foydalanildi. To‘ldiruvchi sifatida 80 massa qism miqdordagi mikrosferadan foydalanildi. Suyuq tiokollarni qotirish qotiruvchi - pasta ko‘rinishidagi marganes (IV) oksid bilan amalga oshirildi. Bunda germetiklovchi va qotiruvchi pastalarning massa nisbati 100:10 ni tashkil qildi. Akrilamid germetiklovchi pasta tarkibiga 100 massa qism tiokolga 0,3 dan 10 massa qismgacha qo‘shildi.

Keltirilgan hamma to‘yinmagan birikmalardan foydalanilganda ham germetiklarning mustahkamlik xossalari, dyural va shishaga nisbatan adgeziyasi ortgan, nisbiy cho‘zilishining kamayishi kuzatilgan. Bu esa o‘rganilgan

qo'shimchalar tarkibidagi qo'shbog'lar sababli suyuq tiokollar bilan qotish reaksiyasida qatnashishidan dalolat beradi. Qotish mexanizmida reaksiya radikal mexanizm bo'yicha boradi va noorganik peroksid (marganes (IV) oksid) va amin (akrilamid) bilan inisirlanishi aniqlandi.

Modifikatsiyalangan germetiklarni qotirish normal sharoitda (20 °C, 10 kun) va tezlashirilgan rejimda (65-75 °C, 24 soat) amalga oshirildi.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'rganilgan to'yinmagan birikmalarni kiritish yashovchanlikning ortishiga olib kelgan.

**1-jadval**

**To'yinmagan birikmalar bilan modifikatsiyalangan tiokol germetiklarning xossalari**


Material	Miqdori, mas.q.	Vaqt, $\tau$ , soat	Chuzilishdagi shartli mustahkamlik, $\sigma_p$ , MPa	Uzilishdagi nisbiy chuzilish, $E_{\text{нис}}$ , %	Dyuralga nisbatan adgeziya, A, MPa
Nazorat	0,0	0 <sup>50</sup>	0,95	287	0,53
	1,0	1 <sup>20</sup>	1,07	273	0,67
	2,0	1 <sup>55</sup>	1,33	248	0,80
	3,0	2 <sup>20</sup>	1,38	225	0,87
	5,0	3 <sup>45</sup>	1,34	208	0,93
Oligofirakrilatlar TTM-3 MGF-9	5,0	2 <sup>00</sup>	0,82	55	0,77
	5,0	2 <sup>45</sup>	0,98	340	0,79
Akrilamid	1,0	2 <sup>45</sup>	1,41	215	1,1
	2,0	3 <sup>10</sup>	1,47	172	1,13
	3,0	3 <sup>55</sup>	1,49	125	1,27
	4,0	5 <sup>20</sup>	1,59	82	1,38

Demak, oligofirakrilatlardan foydalanilganda tiokol germetiklarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarning ortishi yetarlicha yuqori bo'lmaydi. Akrilamid modifikatori qo'llanilganda germetikning yopishqoqlik va deformasion-mustahkamlik xossalarning yaxshilanishi ko'zatiladi. 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, modifikator miqdorining ortishi natijasida yashovchanlik xossasi ortadi.

Yashovchanlik bo'yicha ma'lumotlardan aniqlanganidek, to'yinmagan birikmaning oz miqdorida kam qovushqoq birikmada yuqori darajada sekinlashtiruvchi samara kuzatiladi. Buni kam qovushqoq smola uchun qotish jarayonining boshlang'ich bosqichida diffuziya jarayoni ancha intensiv kechadi, natijada hosiladagi uchlamchi azot atomlari funksional guruhlarining ekranlanishi kuchayadi va ular vulkanizatsiyaning tezlashtiruvchisi hisoblanadi.

Germetik tarkibidagi akrilamid miqdorining ortishi bilan germetikning dyuralga va shishaga nisbatan adgeziyasi ortadi (1-jadval). Bu holat faol to'yinmagan bog'lar konsentratsiyasining va smoladagi diffuziyaning ortishi,

shuningdek germetik-dyural va germetik-shisha chegarasida mavjud funksional guruhlar bo'yicha bog'larning shakllanishida qo'shbog'larning ancha faol qatnashishi bilan bog'liq. To'yinmagan bog'lari bo'lgan birikmani kiritish germetikning fizik-mexanik xossalariga ta'sir etadi. To'yinmagan birikmalardagi funksional guruhlar miqdorining ortishi to'yinmaganlikning doimiy qiymatida cho'zilishdagi shartli mustahkamlikni  $\sigma_p$  oshiradi va uzilishdagi nisbiy cho'zilishni kamaytiradi (5-rasm). Bu marganes (IV) oksid bilan germetikning qotish tezligining kamayishi bilan bog'liq bo'lib, ancha defektli to'r hosil bo'ladi (akrilamid birikmasining miqdori 4,0 massa qism bo'lganda).



**5-rasm. Tiokol germetiklar  $\sigma_p$  (1),  $E_{nis}$  (2) va A (3) ko'rsatkichlarning modifikator miqdoriga bog'liqligi.**

***Og'ir metall oksidlari bilan qotuvchi akrilamid asosida modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosidagi germetiklar.***

Akrilamid asosida modifikatsiyalangan tiokol germetiklar tarkibida to'yinmagan bog'lar mavjud. Shuning uchun bu tiokol germetiklar ultrabinafsha nurlarga, ozonga chidamliligi, termik turg'unligi,  $-70^{\circ}\text{C}$  dan  $130^{\circ}\text{C}$  gacha keng harorat intervalida ishlatish mumkinligi kabi qator afzalliklarga ega. Akrilamid asosidagi tiokollar amalda fizik-mexanik ko'rsatkichlari bo'yicha suyuq tikollar asosidagi tarkiblardan ancha ustun hisoblanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, akrilamid bilan modifikatsiyalangan germetiklar suyuq tiokollar asosidagi germetiklardan suv, benzin va moyga chidamliligi bilan qolishmaydi.

Metall oksidlari bilan qotiriladigan germetiklarni olish va ularni ishlab chiqarishning texnologik hamda resepturaviy aspektlari quyidagi texnologik qismda keltirilgan. Tiokol oligomerlarning tarkibi va tuzilish hamda adgeziyani yaxshilovchi qo'shimchalardan tashqari, vulkanizatlar tabiati, qo'shiladigan to'ldiruvchi miqdori va tabiati ham germetiklarning ekspluatasion, fizik-mexanik va texnologik, xossalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Vulkanizatlar tabiatining ta'siri DAF-6 markali tiokol oligomeri asosidagi germetiklar misolida 2-jadvalda keltirilgan.


**DAF-6 oligomeri asosidagi modifikatsiyalangan tiokol germetik xossalarning vulkanlovchilar turiga bog'liqligi**

Ko'rsatkichlar	ZnO	Kumol gidroperoksid	CaO	PbO <sub>2</sub>	MnO <sub>2</sub>
Nisbiy cho'zilish, %	100-300	100-300	50-250	200-400	300-600
100 % cho'zilishdagi modul., Mpa	0,1-0,6	0,2-0,5	0,1-0,25	0,1-0,4	0,1-0,8
Elastik tiklanish, %	50-70	70-85	50-70	70-80	80-95
Shor bo'yicha qattqlik A, u.e.	25-50	20-40	10-25	10-30	15-70


2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, panellararo yoriqlar va shisha paketlarni germetiklash sifatida qo'llaniladigan tiokol kompozitsiyalarni olish uchun vulkanlovchi agent sifatida marganes (IV) oksid ko'proq mos keladi. Natijada olingan tiokol kompozitlar yuqori darajada elastik tiklanish darajasiga va ultrabinafsha nurlarga nisbatan chidamlilikka ega bo'ladi.

**To'ldiruvchilarning modifikatsiyalangan tiokol germetiklarning qotishi va xossalarga ta'siri.** Modifikatsiyalangan tiokol germetiklarga to'ldiruvchilarni kiritish to'ldirilgan tiokol polimerlarning tuzilishi shakllanishi jarayonida harakatchanligining kinetik birligiga, tuzilishiga, fizik-kimyoviy va mexanik xususiyatlariga, birinchi navbatda polimer-to'ldiruvchi chegara qavatida tuzilish shakllanish jarayonlariga va kinetikasiga shubhasiz sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu haqiqatdan ham faqat to'ldirilgan shaklda qo'llaniladigan polisulfid oligomerlar asosidagi germetiklar uchun tegishli bo'lib, buning natijasida ularning xossalari, asosan, deformatsion mustahkamligi yaxshilanadi. Tiokollarning fizik-mexanik xossalari yaxshilashda va to'ldiruvchi kiritishda bevosita uning qovushqoqligining ortishi sodir bo'ladi. Bu esa olingan kompozitsiyalarning texnologik xossalarning yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Ta'kidlash kerakki, qoidaga ko'ra kompozitsiyalarning fizik-mexanik xossalari kompleks o'zgartirish keyinchalik ko'rsatkichlarning maksimum yomonlashishiga olib keladi. Adabiyotlarda tabiiy bazalt mineralining modifikatsiyalangan tiokol germetiklarning texnologik, fizik-mexanik va ekspluatasion xossalari to'ldiruvchi sifatidagi ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar amalda uchramaydi. Suyuq tiokollar asosidagi germetiklarda va tiol tarkibli poliefirlar asosidagi germetiklarda sodir bo'ladigan qotish jarayoniga basalt mineralining to'ldiruvchi sifatidagi ta'siri o'rganilmagan. Shunga ko'ra mahalliy xomashyo bazalt mineralining modifikatsiyalangan tiokol germetiklarning texnologik, fizik-mexanik va ekspluatasion xossalari ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.


Keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, modifikatsiyalangan tiokolning suyuq tiokolga nisbatan marganes (IV) oksid bilan oksidlanish reaksiyasidagi faolligi kam. Bundan ko'rinib turibdiki, modifikatsiyalangan tiokol tuzilishidagi farq uning qovushqoqligi bilan bog'liq bo'lib, ma'lumki, suyuq tiokol tarkibiga har doim kiruvchi katalitik xususiyatli qo'shimchalar (metall tuzlari) va oltingugurt quyidagicha sodir bo'ladigan qotish reaksiyasida ishtirok etadi va uni yuqori faollashtiradi:



Bazalt miqdorining ortib borishi bilan hamma holatlarda qotirilgan tarkiblarning uzilish vaqtidagi shartli mustahkamligining oshishiga olib keladi (6-rasm), bunda suyuq tiokollar asosidagi tarkiblarning mustahkamligi modifikatsiyalangan tiokollarga nisbatan yuqori (7-rasm). Agar mustahkamlik bosqich bilan oshirib borilsa, mos holda suyuq tiokollar, bazalt va bo‘r asosidagi sistemalar nisbiy cho‘zilishining kamayishi quyidagi qator bo‘yicha o‘zgaradi: bo‘r > vollostanit > bazalt, modifikatsiyalangan tiokol asosidagi bunday sistemada esa: bo‘r > vollostanit > bazalt minerali qatorida kamayadi. bazalt minerali miqdori 80-100 massa qismgacha bo‘lganda uning tabiatiga bog‘liq bo‘lmasdan mustahkamlikning kuchli o‘sishi kuzatiladi. Kuchayish samarasi farqini birinchi navbatda bazalt va bo‘r sirtining modifikatsiyalangan tiokolga nisbatan adsorbsion faolligi bilan bog‘lash mumkin. Bulardan ko‘rinib turibdiki, turli ko‘rinishdagi kul chiqindilari uchun o‘shish samarasi kul chiqindisi-PSO bo‘limi chegarasida o‘zaro ta’sirning ortishi bilan bog‘liq.



**6-rasm. Suyq tiokol germetiklar  $\sigma_p$  (1,2,3) va  $E_{nis}$ . (4,5,6) ko'rsatkichlarining qavartirilgan bazalt tabiati va miqdoriga bog'liqligi: 1,4 – bazalt; 2,5 – vollostanit; 3,6 – bo‘r**




**7-pacm. Modifikatsiyalangan tiokol oligomer asosidagi germetiklar  $\sigma_p$  (1,2,3) va  $E_{nis}$ . (4,5,6) ko'rsatkichlarining bazalt tabiati va miqdoriga bog'liqligi: 1,4 – bazalt 2,5 – vollostanit; 3,6 – bo‘r**

Zarracha o‘lchami qanchalik kichik bo‘lsa va germetikda to‘ldiruvchi qanchalik yaxshi tarqalsa to‘ldiruvchi tiokol bilan shuncha ko‘p kontaktda bo‘ladi. Bu esa fizikaviy ta’sirni kuchaytiradi va ko‘ndalang bog‘lar effektiv zichligining ortishini ta’minlaydi. Bo‘r ta’sirida kuchayish effektining kam bo‘lishini bo‘r sirtida joylashgan modifikator (SJK) oligomer bilan to‘ldiruvchi o‘rtasidagi fizikaviy ta’sir darajasini kamaytirishi bilan tushuntirish mumkin. Tabiiy bo‘rning kam faolligi ko‘rinib turibdiki, birinchi navbatda uning kichik solishtirma sirti bilan bog‘liq.


Tiokol kompozitining tarkibiga qo‘shiladigan to‘ldiruvchi komponentlarining konsentratsiyasining oshishi zarrachalar joylashuvining o‘rtacha qiymatini yanada pasaytiradi. Shuning bilan birga yuzada adsorbsion qavat qalinligi va oligomerning to‘ldiruvchilar bilan bog‘lanish masofasi ham qisqaradi. To‘ldiruvchilar konsentratsiyasi ma’lum bir qiymatga yetganda adsorbsion qavat o‘rtasida



bog‘lanish yuzaga keladi. Kompozitsiyaning oqish egrisiga to‘ldiruvchi miqdori va tabiatining ta’siri 8-rasmda keltirilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, to‘ldiruvchilar bilan to‘ldirilgan kompozitlarda, ya’ni bo‘rda, titan oksidida va boshqa to‘ldiruvchilarda Nyuton suyuqliklarining oquvchanligidan og‘ishini kuzatish mumkin.




**8-rasm. Tiokol oligomerlarining oquvchanlik egrilari .**




**9-rasm. Kompozitsiya oquvchanligiga to‘ldiruvchi miqdori va tabiatining ta’siri .**

Oquvchanlik og‘ishishining sababi bog‘lovchi va to‘ldiruvchi o‘rtasida adsorbsion ta’sirlarning paydo bo‘lganligi bilan tushuntirish mumkin. Oligomer va ishlatilgan to‘ldiruvchilar ta’sirlashishining intensivligi zarrachadagi gidrat qavatlar yuzasida sodir bo‘ldi. To‘ldiruvchi zarrachalarining yuza qismida gidrat qavatlarining paydo bo‘lishi oligomer va to‘ldiruvchi o‘rtasida struktura hosil bo‘lishini kamaytiradi. Ishlatilgan to‘ldiruvchilarning gidrofilligi bo‘yicha quyidagi tartibda joylashtirish mumkin: bazalt > titan oksidi > vollostanit > bo‘r > CaO.



**10-rasm. To‘ldiruvchilarning kompozitsiyadagi rekinetik egri chizilari.**



**11-rasm. Vulkanizatlar termomexanik egri chizig‘iga**

## to'ldiruvchilarning tabiatining ta'siri.


Bu yerdan ko'rinib turibdiki, ishlatilgan to'ldiruvchilar kimyoviy tuzilishi va dispersligidan qat'i nazar, yuqorida keltirilgan tartibda keltirilganidek vermikulitdan kalsiy oksidigacha adsorbsion ta'sirlashish samaradorligi pasayib boradi. 10-rasmdan ko'rinib turibdiki, bir haftada, ya'ni 7 kun ichida namlikni yutish intensiv kuzatilib, undan keyin esa namlikni yutishi sekinlashib qolganligini ko'rish mumkin. Bu jarayonda namlikni yutish muvozanatlashmaguncha, to'ldiruvchi zarrachalarining yuzasida molekulyar adsorbsion qavatlar ma'lum bir ko'rinishga kelishini ko'rish mumkin.

To'ldiruvchilarning reokinetikasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, to'ldiruvchilarning kompozitsiyani qotirish tezligi quyidagi tartibda kamayib boradi: titan oksidi > CaO > bazalt > bo'r > Vollostanit. Bundan ko'rinib turibdiki, kompozitsiyaning qotish tezligia to'ldiruvchining dispersligi ham katta ta'sir qiladi. Bu esa kompozitsiyadagi molekulyar siljvchanlikni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari ishlatilgan to'ldiruvchilar pH qiymatga ta'sirini ham aniqlab beradi.

Termomexanik usul yordamida polimer tarkibidagi to'ldiruvchi bilan hosil qilgan strukturalanishi haqida ma'lumot olish mumkin (11-rasm). Bizga ma'lumki polimer mahsulotlari tarkibiga to'ldiruvchilarning qo'shilishi makromolekula deformatsiyalanishini kamaytiradi. Ko'pincha bunday to'ldiruvchilar sinfiga oltingugurtli yoki uglerodli birikmalar mansub bo'ladi. Bu turdagi moddalar polimer tarkibiga kiritilganda polimer makromolekulasida tikilish reaksiyalari ketishi hisobiga deformatsiyalanish ham kamayib ketadi. Vollostanit, vermikulit va shunga o'xshash kelib chiqishi tabiiy bo'lgan to'ldiruvchilar bilan to'ldirilgan polimer kompozitsiyalarning termomexanik egri chizig'ida farqlarni ko'rish mumkin. Bu yerda deformatsion ta'sir natijasida ishdan chikish ko'proq vollostanit bilan to'ldirilgan namunalarda kuzatiladi. Bunday jarayonning kuzatilishi namunalarda qo'shimcha strukturalanish ketishidan dalolat beradi, ya'ni makromolekulalararo tikilish reaksiyalari borishi hisobiga makromolekulada deformatsion jarayonlar kamayadi, bu esa xususiyatlarning yomonlashishiga olib keladi.

*Yangi modifikatsiyalangan tiokol germetiklar olish texnologiyasi.* Ishlab chiqilgan modifikatsiyalangan tiokol oligomerlar asosida oq va to'q rangli ikki komponentli qurilish germetiklarini tayyorlashning optimal sharoitlari aniqlandi. Panellararo tirqishlarga va tom yopish uchun mo'ljallangan tiokol germetiklar olish texnologiyasi ishlab chiqildi va ularning tajriba-laboratoriyasida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Respublikamizda ilmiy-texnik daraja yetarlicha yuqori bo'lib, O'zbekistonda talab juda yuqori bo'lgan sintetik kauchuklar ishlab chiqarishning yo'qligini hisobga olganda, birinchi navbatda O'zbekistonda sintetik kauchuk ishlab chiqarish yo'lga qo'yilsa, mamlakatda butun tarmoqning yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi. Taklif etilayotgan texnologiya texnologik tizimning soddaligi, jarayonni odatdagi avtoklav reaktorlarda yengil amalga oshirish mumkinligi va mahalliy xomashyo resurslari bilan ta'minlanganligi bilan ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyani odatdagi reaktorlarda cho'ktirish, yuvish va quritish jarayonlari bilan oson amalga oshirish mumkin.



**8-rasm. Tiokol germetiklar ishlab chiqarishning texnologik sxemasi:**  
 1,2,3,7-dastlabki moddalar uchun sig'imlar, 4-sovutkich, 5- polimerlovchi reaktor,  
 6-nasos, 8-tiokol oligomerlarni modifikatsiyalash uchun reaktor, 9-quritgich.

Termiz davlat universiteti ilmiy laboratoriyasida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan xomashyo resurslaridan sintetik kauchuk olish jarayoni tadqiq etildi. Polisulfid (tiokol) kauchukni olish natriy tetrasulfidni bisgaloid birikma bilan o'zaro ta'sirlashtirib amalga oshirildi. So'ngra metall oksidlari bilan vulkanizatsiyalab, yuqori germetiklik xossasi,  $-70^{\circ}\text{C}$  dan  $160^{\circ}\text{C}$  harorat intervalida chidamliligi, yuqori elektroizolyasion xossalari bilan farq qiladigan vulkanizat olindi. Olingan sintetik kauchuklardan aviatsiyada, avtomobil, elektronika sanoatida, qurilishda va sanoatning boshqa sohalarida foydalanish mumkin. O'zbekistonda birinchi bo'lib, polisulfid kauchuklarni sintez qilishning yuqori samarali va ekologik havfsiz usuli ishlab chiqildi. Polisulfid kauchuklar sintetik kauchuklar orasida ancha arzon va qulay kauchuklar hisoblanadi, biroq ular ba'zi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari bilan boshqa sintetik kauchuklardan pastroq turadi. Shu sababli olingan kauchuklar turli xil maxsus germetiklovchi va qoplama mahsulotlarni ishlab chiqarishda qo'llashga mo'ljallangan.

Modifikatsiyalangan tiokol germetiklar suyuq tiokol germetiklarga nisbatan yuqori issiqlik va tovush yutuvchi ko'rsatkichlarga, yaxshi dielektirik hamda elastiklik xossalarga ega, cho'zilishga yuqori darajada chidamli, oksidlovchilar ta'sirida eskirishga, moy va erituvchilar ta'siriga yo'qori darajada chidamlidir.

## XULOSA

1. Tarkibida azot, fosfor, va oltingugurt bo'lgan MKA-1, MMA-2, MAF-3, DKA-4, DMA-5, DAF-6, EKA-7, EMA-8, EAF-9 markali tiokol oligomerlar sintez qilindi, shuningdek, ularni akrilamid bilan kimyoviy modifikatsiyalash tavsiya etildi.

2. Yangi tiokol oligomerlarni sintez qilishda sintez jarayoniga turli omillar, jumladan, erituvchilar, haroratning, dastlabki moddalar nisbatlarining ta'siri, shuningdek, zamonaviy yuqori informasion analiz usullari yordamida

oligomerlarning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish natijasida kompleks xossali tiokol oligomerlar olish imkoniyati ko'rsatib berildi.

3. Olingan oligomer germetiklar xossalariga akrilamid modifikatorining ta'siri hamda oligomer makromolekulasini modifikatsiyalash natijasida ularning turli xil adgezion-faol funksional guruhlarga ega bo'lishi ko'rsatib berildi.

4. Olingan MKA-1, MMA-2, MAF-3, DKA-4, DMA-5, DAF-6, EKA-7, EMA-8, EAF-9 markali tiokol oligomerlarning germetiklovchi xossalari sinovdan o'tkazildi. Ushbu mahsulotlarni xossalari bo'yicha foydalaniladigan chet el analoglari o'rnida qo'llash tavsiya etildi.

5. Mahalliy xomashyolar asosida tarkibida azot, fosfor, oltingugurt va metall bo'lgan tiokol oligomerlar olish texnologiyasi ishlab chiqildi va «Qayum hoji servis» MCHJ, «Kafolat rezina» MCHJ va korxonalarida sinovdan o'tkazildi hamda olingan tiokol oligomerlarni yuqori adgeziyaga ega, turli tashqi ta'sirlarga chidamli germetiklar ishlab chiqarishda qo'llash tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.01.2023.К/Т.78.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ТОШЕВ МУМИН ЭШБОЕВИЧ**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ АЗОТСОДЕРЖАЩИХ  
АЗОТ, ФОСФОР И СЕРУ ОЛИГОМЕРОВ НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО  
СЫРЬЯ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ**

**02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Термез-2023**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2023.3.PhD/T3831.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета [www.tersu.uz](http://www.tersu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

**Научный руководитель:** Тураев Хайит Худайназарович  
доктор химических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Тожиев Панжи Жовлиевич  
доктор технических наук, доцент  
Соттикулов Элёр Сотимбоевич  
доктор философии технических наук,  
старший научный сотрудник

**Ведущая организация:** Бухарский государственный университет

Защита диссертации состоится 11.11.2023 г. в 10<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 при Термезском государственном университете по адресу: 190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета за № 185 с которой можно ознакомиться в ИРЦ (190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

Автореферат диссертации разослан «11» 11 2023 года.  
(протокол рассылки № 5 от «11» 11 2023г.).



**И.А. Умбаров**  
Председатель научного совета  
по присуждению ученой  
степени, д.т.н., доц.

**Ш.А. Касимов**  
Ученый секретарь научного  
совета по присуждению  
ученой степени, д.х.н., доц.

**Р.В. Аликулов**  
Председатель научного семинара  
при научном совете по присуждению  
ученой степени, д.х.н., доц.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня в мире материалы на основе азот-, фосфор- и серосодержащих олигомеров, широко используются во многих областях народного хозяйства, в том числе при производстве красок, ингибиторов коррозии, смазочных материалов, сорбентов, ускорителей вулканизации резины, герметиков и защитных покрытий. Также особое значение приобретают герметичные органические материалы на основе серосодержащих олигомеров из-за способности инвариантности при затвердевании, высоких физико-механических свойств, устойчивости к агрессивным средам, возможности применения вулканизаторов в широком диапазоне температур.

В мире ведется научно-исследовательская деятельность, направленная на получение высокоэффективных герметизирующих органических материалов на основе азот-, фосфор- и серосодержащих олигомеров и улучшение их качества. В связи с этим контроль длины цепи и молекулярной массы при синтезе азот-, фосфор- и серосодержащих олигомеров, выбор состава наполнителей и отвердителей для получения высокоэффективных герметиков на основе полисульфидных олигомеров, улучшение адгезионных свойств получаемых герметизирующих покрытия, повышение устойчивости к вода, масло и различным агрессивным средам и разработка дешевых, ресурсосберегающих технологий получения сульфидных герметизирующих материалов являются актуальными вопросами.

В нашей стране химическая промышленность достигает определенных результатов в производстве новых видов материалов, в том числе проводит масштабный комплекс мероприятий в области снабжения внутреннего рынка химическими реагентами, замещающими импорт. В нашей республике большое внимание уделяется внедрению научно обоснованной системы управления промышленными объектами и природоохранным мероприятиям посредством внедрения инновационных технологий. В стратегия и развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены приоритетные направления развития экономики и особо обозначены вопросы «дальнейшего ускорения производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью, изменения видов качественно новой продукции и технологий на основе глубокой переработки местных сырьевых ресурсов»<sup>1</sup>. В связи с этим в развитии ведущих отраслей народного хозяйства, в том числе химической промышленности, создание экономически эффективных и экологически чистых технологий производства уплотнительных материалов на основе направленного органического синтеза, является актуальным из неотложных задач и имеет большое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит осуществлению задач, предусмотренных в Указе и постановлении Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии

---

<sup>1</sup>Указ Президента Республики Узбекистан, от т 28 января 2022 года УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы”

дальнейшего развития Республики Узбекистан», № ПП-3479 от 17 января 2018 года «Об обеспечении отраслей экономики нашей страны необходимой продукцией и сырьем, о мерах по устойчивому обеспечению», ПЗ-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по опережающему развитию химической промышленности в Республике Узбекистан» и ПУ -4265 от 3 апреля 2019 года «Дальнейшее реформирование химической промышленности и ее инвестирование», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологии республики VII «Химическая технология и нанотехнология».

